

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiyni inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198



UO'K: 1:316.42+316.722

INKLYUZIV JAMIYAT: TUSHUNCHA VA FALSAFIY TAHLILI

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБЩЕСТВО: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ И ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

INCLUSIVE SOCIETY: CONCEPTUAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Salmonov Ahadjon Abdullajonovich 

Fag'ona davlat universiteti Falsafa kafedrası tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv jamiyat tushunchasi, jamiyatning rivojlanishi, teng imkoniyatlar va barqaror muhitni ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajriba hamda milliy tajribaning falsafiy jihatlari haqida yoritilgan. Inklyuziv jamiyat tushunchasini nazariy jihatdan tahlillari hamda inklyuziv rivojlanish kontseptsyalari, O'zbekistonda inklyuziv jamiyat bo'yicha olib borilayotgan islohotlar hamda xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ijtimoiy ko'rsatkichlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy o'sish jarayonlari haqida fikrlar yuritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается концепция инклюзивного общества, опыт зарубежных стран в сферах социального развития, равных возможностей и обеспечения устойчивой окружающей среды, а также философские аспекты национального опыта. Обсуждаются теоретический анализ концепции инклюзивного общества и концепции инклюзивного развития, проводимые в Узбекистане реформы по инклюзивному обществу, процессы социально-экономического роста с инклюзивными социальными показателями в зарубежных странах.

Abstract

This article discusses the concept of an inclusive society, the experience of foreign countries in the areas of social development, equal opportunities and ensuring a sustainable environment, as well as the philosophical aspects of national experience. Theoretical analysis of the concept of an inclusive society and concepts of inclusive development, reforms being carried out in Uzbekistan on an inclusive society, and the processes of socio-economic growth with inclusive social indicators in foreign countries are discussed.

Kalit so'zlar: inklyuziv jamiyat, inklyuziv o'sish, inklyuziv rivojlanish, ijtimoiy tengsizlik, aholi farovonligi, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

Ключевые слова: инклюзивное общество, инклюзивный рост, инклюзивное развитие, социальное неравенство, благосостояние населения, сокращение бедности, социально-экономическое развитие.

Key words: inclusive society, inclusive growth, inclusive development, social inequality, population well-being, poverty reduction, socio-economic development.

KIRISH

Butun dunyodagi globallashuv jarayonlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi farovonligini ta'minlash uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi dolzarb masaladir. Hozirgi davrda inklyuziv jamiyat, inklyuziv ta'lim, inklyuziv o'sish tushunchalari ilmiy tadqiqotlar doirasida iqtisodiy, ijtimoiy yo'nalish sifatida o'rganilib, keng ommalashib bormoqda. Inklyuziv tushunchasi dastlab, 2020 yil 23-sentyabr kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga «inklyuziv ta'lim» tushunchasi ilk bor kiritilgan. Nogironlik endilikda tibbiy masala emas, balki birinchi navbatda inson huquqlari masalasi deya qonuniy e'tirof etildi.

Inklyuziv jamiyat tushunchasiga bugungi kunda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash, barcha shaxslarning manfaatlarini ifoda etadigan va teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari – ijtimoiy himoya, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy-iqtisodiy o'sish bilan ta'riflash mumkin. Inklyuziv jamiyat ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanadi. Bu barcha odamlarga jinsiy, jinsiy orientatsiyasi, etnik guruhi, irqi, dini va ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, jamiyatga kirishish va to'liq ishtirok etish imkonini beradi [1]. Bu nogironlarni kundalik faoliyatga jalb qilish va ularning nogiron bo'lmagan tengdoshlariga o'xshash resurslar va imkoniyatlardan foydalanishiga ishonch hosil qilishni o'z ichiga oladi [2]. Inklyuziv jamiyatda inson o'zini sog'lom muhitda topadi. Bu rivojlanish, ijtimoiylashuv, talim, ko'ngillilik va

boshqalar shaklida bo'lishi mumkin. Ijtimoiy rivojlanish bo'yicha Jahon sammitida (Kopengagen 1995) inklyuziv jamiyat g'oyasini ilgari surib, bunday inklyuziv jamiyat barcha inson huquqlari va hurmatiga asoslanishi kerak asosiy erkinliklar, madaniy va diniy xilma-xillik, ijtimoiy adolat va maxsus ehtiyojlari zaif va nochor guruhlar, demokratik ishtirok va qonun ustuvorligidir. Bu tengsizlikni kamaytirish va moslashuvchan va bag'rikenglikni taminlaydigan ijtimoiy siyosat yuritadigan va barcha insonlarni qamrab olgan jamiyatlardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Inklyuziv jamiyat haqidagi tadqiqotlar va amaliyotga tatbiq etilayotgan loyihalarning natijalari hamda mutaxassislarining fikrlariga e'tibor qaratidigan bo'lsak, bu masalada muammolar hanuz o'z yechimini topgani yo'q. Ushbu muammolarga falsafiy tahlil orqali yechim topish muhim vazifalarni yuzaga keltiradi. Inklyuziv jamiyat bo'yicha iqtisodiyot, pedagogika sohalarida M.Asqarova, T.Sag'dullayev, L.Karimova, G.Mirzayeva, X.Ibtaimov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Bundan tashqari internet tizimidagi sahifalardan Lex.uz, gazeta.uz, www.oecd.org rasmiy saytlardan olingan ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mutsaqil tadqiqotchisi, i.f.n., dotsent. Asqarova Mavluda Turabovnaning "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnalida (22.07.2024) "Inklyuziv o'sishni qo'llab-quvvatlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi" nomli maqolasida inklyuziv tushunchasini haqida fikr yuritib, inklyuziv o'sish, teng imkoniyatlar va barqaror muhit bilan uzoq muddatli o'sishni ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan. Dunyo bo'ylab tengsizlik kuchayib borayotgan bir paytda, ko'proq xalqaro tashkilotlar va davlatlar jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun inklyuziv o'sishni rag'batlantirishi, Xitoyning inklyuziv ijtimoiy ko'rsatkichlar bilan yuqori tezlikda o'sishi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim namuna sifatida ko'rilishi bo'yicha fikrlar yuritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

2022-yil 2-dekabr kuni O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan mamlakatimiz xalqiga yo'llagan murojaatida [4] O'zbekistonda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangani qayd etib, «Shu maqsadda, biz barcha fuqarolar, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bir xil imkoniyatlar amal qiladigan inklyuziv jamiyatni barpo etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiramiz. Shu asosda nogironlikni belgilashning allaqachon eskirgan tibbiy modelidan umume'tirof etilgan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tishni o'z oldimizga muhim vazifa qilib qo'yganimiz», — deb aytdi. Shu nuqtai nazardan inklyuziv jamiyat tushunchasini falsafiy tahlil etish va ilmiy-nazariy xulosalar berish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy rivojlanish va aholi farovonligining bosh mezoni bo'lgan "Inson qadri uchun" tamoyili asosida barcha sohalarida shaffoflikni ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Hususan, bino va inshootlarni qurish, rekonstruktsiya qilish, jamoat transporti, axborot va aloqa vositalarini ishlab chiqarishda barcha shaxslar moneliksiz foydalana olishiga ahamiyat qaratilayotgani, nogironligi bor shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazlaridagi qamrov hajmini ikki barobarga oshirish, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan markazlarni kengaytirib, zamonaviy tibbiy va reabilitatsiya uskunalarini bilan jihozlash ishlari amalga oshirilayotgani, barcha soha va tarmoqlarda fuqarolarning faol ishtirok etishi, ta'lim, fan, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, madaniy ehtiyojlarni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar yaratilayotgani inklyuziv jamiyat sari rivojlanishni belgilab bermoqda. O'zbekistonda bir millionga yaqin nogironligi mavjud shaxslarning huquqlarini ta'minlash, jamiyatning barcha a'zolari uchun teng imkoniyatlar yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan ishlarga e'tibor qaratganimizda ko'proq aholining ijtimoiy qatlamlari, ya'ni imkoniyati cheklangan shaxslar (turl shakldagi nogironligi mavjud shaxslar), moddiy qiyinchilikdagi shaxslar, oilalarga alohida ijtimoiy-iqtisodiy yordam turlari belgilanganligini kuzatamiz. Bu esa o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy sohalarida inklyuziv o'sishga alohida ahamiyat qaratilishi dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini kafolatlash bo'yicha alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu o'zgarishlar orqali mamlakatda ijtimoiy adolatni ta'minlash masalalari yanada kengayib, respublikamiz ijtimoiy davlat sifatida yangi bosqichga o'tdi.

FALSAFA

Yangi O'zbekistonda inklyuziv jamiyat sari ildam qadamlar qonunchilik tashabbuslari doirasida nogironligi bo'lgan shaxslar, bolalar, ayollar, keksalar va jamiyatning boshqa ehtiyojmand qatlamlari uchun turli imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Davlatning ijtimoiy siyosatida ijtimoiy himoya tizimi yanada mustahkamlanib, inklyuziv rivojlanish va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay muhit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada sharoitlarni yaxshilanishi 2020-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan izohlanadi. Ushbu qonunda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga yordam berish uchun zarur huquqiy asos bo'ldi. 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konventsiyasi ratifikatsiya qilindi. Bu bilan nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik siyosatini yanada mustahkamlab, ularning huquqlarini xalqaro me'yorlarga mos ravishda himoya qilishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmalari tanlovida "Inklyuziv ta'limdan - inklyuziv jamiyatga" nomli loyihasi 2021-yildan buyon amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihada maqsadli guruh sifatida koxlear implantatsiya jarrohligi o'tkazilgan, Daun sindromli va autistik spektr buzilishlari bo'lgan bolalar olingan. Loyihani amalga oshirishda Respublika hududlari Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qarshi, Urganch, Namangan shaharlari tanlab olingan. Loyihaning miqyosi O'zbekiston Respublikasida ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlarida vazirliklar va ularning hududiy boshqarmalari, hududiy xokimliklar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida bolalarni inklyuziv ta'lim jarayoniga saralab olish, pedagoglarni bolalarni inklyuziv sinflarga saralash metodikalarini va ularga yakka tartibdagi ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni o'rgatish, shaharlardagi umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari va psixologlarini bolalar bilan ishlashga tayyorlash, inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish bo'yicha oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari, amaliyotchi o'qituvchilarga metodik ta'minot yaratish uchun bosma va elektron qo'llanmalar (alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun nutq o'stirish va matematika bo'yicha elektron dasturlar, mutaxassislar va ota-onalar uchun uslubiy qo'llanmalar)ni ishlab chiqish kabi masalalar ko'rib chiqilishi rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda bu sohadagi ishlar BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi doirasida bajarilmoqda. Litva, Gruziya, Moldova, Rossiya, Belarus tajribasi o'rganildi. Rossiya va Belarusning tegishli ilmiy-amaliy markazlari, institutlari bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Bugungi kunda tegishli vazirlik, idoralar, jamoat tashkilotlari, UNICEF, BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi mas'ul xodimlari bilan birgalikda O'zbekistonning "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi qonuni loyihasi ishlab chiqildi hamda Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Yurtimizda inklyuziv jamiyatni shakllanishining muhim omili sifatida 2023-yil 1-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligini tashkil etilishini ko'rish mumkin. Agentlik faoliyatini yo'lga qo'yilishi natijasida aholiga xizmat ko'rsatishning turlari ko'paydi va manzilli ijtimoiy yordam mahalla darajasida yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Bu fuqarolarga o'z yashash muhitida yordam olish imkonini beradi. Ijtimoiy xizmatlarni avtomatlashtirish bo'yicha ijtimoiy karta tizimi joriy etilishi natijasida davlat yordamining tezkor va shaffof amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda. Bu tizim orqali fuqarolarga qo'shimcha qulayliklar yaratilib, barcha xizmatlar raqamli texnologiyalar asosida onlayn tarzda ko'rsatilayotgani xizmatlar sifatini yanada oshirmoqda. Bu o'zgarishlar o'z navbatida inklyuziv jamiyatning shakllanishida muhim o'rin tutadi va taraqqiyot uchun muhim omil bo'ladi.

Inklyuziv jamiyat haqidagi nazariyalar o'rganilganda inklyuziv o'sish, inklyuziv ta'lim, inklyuziv rivojlanish omillarini iqtisodiy jihatlarini yoritilganligini kuzatish mumkin. Shu jihatdan, inklyuziv jamiyat haqida fikr yuritishdan avval bu tushunchaga ta'rif berish maqsadga muvofiqdir. Inklyuzivlik jamiyatning barcha a'zolari iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishlari va iqtisodiy o'sishning afzalliklarini baham ko'rishlari kerakligini anglatadi. Inklyuziv jamiyatda insonlarning kelib chiqishi, kasallik yoki nogironligi muhim emas [5]. Biroq, inklyuziv jamiyat o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu birinchi navbatda, saylangan davlat tuzilmalari tomonidan olib borilayotgan islohotlarga bog'liq. Ammo uzoq muddatli hokimiyatni saqlab qolish uchun inson huquq va erkinliklarini bo'g'uvchi yopiq hukumatlar hali ham mavjud. 2020-yilda Jahon Iqtisodiy Forumi asoschisi Klaus Shvab inqiroz global tengsizliklarni keskin fosh qilganini aytdi. Klaus Shvabning so'zlariga ko'ra, pandemiya fuqarolar manfaati uchun emas, balki o'zlari uchun ishlaydigan niqobsiz rahbarlarga ega [6].

Inklyuziv jamiyat tushunchasi – bu shaxs, ijtimoiy guruhlar va jamoalar manfaatlarini teng ifoda etuvchi hamda bir xil imkoniyatlar ta'minlangan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy erkinlikning keng ifodasidir. Bu ta'rifda jamiyatda boy va kambag'al kishilarning tengsizligidagi farqlar, ularning har jihatdan erkin harakatlana olishi nazarda tutilgan. Jamiyatda sotsial stratifikatsiya jarayonlari va sotsial qonunlarning nazarda tutuvchi omillar, inklyuziv o'sish tendentsiyasini tadqiq etish va falsafiy tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv o'sish ish unumdorligi, teng imkoniyatlar va barqaror muhit bilan uzoq muddatli o'sish hisoblanadi. Inklyuziv o'sish tendentsiyasi tengsizlikni kamaytirishni o'z ichiga oluvchi o'sish imkoniyatini to'siqsiz yaratish jarayonlarini kuzatishda aniqlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan Barqaror rivojlanish sammitida qashshoqlikka barham berish masalasi dunyodagi global muammo va barqaror iqtisodiy rivojlanishning zarur sharti sifatida muhokama qilingan. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun barcha mamlakatlar uchun ijtimoiy himoyani kengaytirish zarur [7]. 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibi tinch, adolatli va inklyuziv jamiyatlarni ko'zda tutadi, unda barcha odamlar o'z imkoniyatlarini munosib va tenglik bilan ro'yobga chiqarishlari mumkin. Inklyuziv jamiyatlarni ta'minlamaslik zo'ravonlikning asosiy sababi sifatida aniqlanadi va barqaror rivojlanishni sekinlashtiradi. 10 va 16-maqsadlar bevosita inklyuziv jamiyatga qaratilgan. Dunyo miqyosida tengsizlikni kamaytirish orqali, teng imkoniyatlar va keng vakillikka e'tibor qaratgan holda inklyuziv jamiyatga erishish barqaror tinchlikning asosiy talabidir [8].

Germaniyaning Berlin shahrida 2025-yil 2-3-aprel kunlari nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va ijtimoiy integratsiyasini mustahkamlashga qaratilgan "Global nogironlar sammiti – 2025" bo'lib o'tdi. Ushbu xalqaro tadbir nogironlar huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va inklyuziv jamiyat qurish yo'lidagi eng muhim tashabbuslardan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida tengsizlik tobora kuchayib borayotgan bir davrda, xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan jamiyat ehtiyojlari va ehtiyojlarini qondirish uchun inklyuziv o'sishga e'tibor qaratilmoqda. Inklyuziv o'sishda nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini, balki iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish muhimligiga e'tibor qaratish lozim. Ilmiy tadqiqotlarda inklyuziv o'sishni mahsuldorlik, bandlik, teng imkoniyatlar va barqaror muhit bilan uzoq muddatli o'sish sifatida o'rganilganligini kuzatishimiz mumkin. Iqtisodiy rivojlanishda aksariyat mamlakatlar inklyuziv o'sishning yangi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqmoqda. Xitoy hukumati, shuningdek, qashshoqlikni kamaytirish, ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlash, daromadlar tafovutini kamaytirish, ijtimoiy farovonlikni yaxshilash va boshqalar uchun ko'plab siyosatlarini ishlab chiqdi. Inklyuziv jamiyat nazariyasini o'rganishda Xitoy davlatining inklyuziv rivojlanish yo'lini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Xitoyning xalqaro savdo, dunyoga ochiqligi nafaqat savdo va kapital oqimini yaxshiladi, balki texnologiyalar, ta'lim, madaniyat almashinuvini ham rag'batlantirdi. Inklyuzivlik tendentsiyasi globallashtiruv davrida yaqqol ko'rinadi. Bu jarayonda birdamlik ko'plab davlatlar jahon miqyosidagi ko'p tomonlama hamkorlikdan o'zaro manfaat va imkoniyatlarni vujudga keltirishi mumkin. Xalqaro hamkorlik rivojlanayotgan mamlakatlarga resurslarni taqsimlash, aholi uchun ish o'rinlari yaratish va aholi turmush darajasini yaxshilash va farovonlikni ta'minlashga yordam beradi.

Globallashtiruv davrida jahon miqyosida ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishi, ijtimoiy tengsizlik va sinfiy tabaqalanishning kuchayishi bilan bog'liq muammolar keskinlashib bormoqda. Ushbu jarayonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning inklyuziv yo'nalishda kontseptsiya ishlab chiqishni, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan yangicha uslubda strategik rivojlanish omillarini e'tiborga olgan holda inklyuziv o'sish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

XULOSA.

Siyosatchilar va amaliyotchilar oldidagi muammo ijtimoiy tushunchani qanday yaratishdir. integratsiya va inklyuzivlik - ilhomlantiruvchi vosita sifatida foydalanish hali ham "hamma uchun jamiyat"ga qaratilgan siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Har bir insonning qadr-qimmati va ahamiyatini nafaqat axloqiy meyor sifatida tan olish uchun o'zgartirish meyor va axloqiy imperativ, balki huquqiy tamoyil, ijtimoiy maqsad va pirovard natijada amaliyot sifatida qabul qilinadi. Ijtimoiy rivojlanish bo'yicha Butunjahon sammiti kontseptsiyasi ijtimoiy integratsiyani asosiy maqsadlaridan biri sifatida inklyuziv jamiyat, "hamma uchun jamiyat" yaratish ijtimoiy rivojlanishning asosi bo'ldi. Kopengagen deklaratsiyasi va Harakat dasturi, uning asosiy natijasi Sammit qashshoqlikni yo'q qilish, to'liq bandlik va ijtimoiy integratsiyani amalga oshirishga vada berdi rivojlantirishning asosiy maqsadlari sifatida azo davlatlar majburiyat oldi. Barqaror, xavfsiz, adolatli va bag'rikeng inklyuziv jamiyatlarni rivojlantirish orqali integratsiya va xilma-xillikni hurmat qilish,

FALSAFA

barcha odamlarning imkoniyat va ishtiroki tengligi, shu jumladan kam taminlangan va zaif guruhlarning va shaxslarni qo'llab-quvvatlash muhim dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etish bo'yicha pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining o'quv rejalariga ta'lim-tarbiyaga oid maxsus o'quv mashg'ulotlarini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilgan. Bundan tashqari, umumta'lim maktablari psixologlari tomonidan o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida har qanday zo'ravonlik, tazyiq va kamsitishlarga qarshi treninglar o'tkazilmoqda. 2021-2022 o'quv yilida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning 24 foizini inklyuziv ta'lim bilan qamrab olinishi va bu ko'rsatkich 2025 yilda 40 foizga yetishi rejalashtirilgan. Bunday o'zgarishlar yaxshi albatta, lekin bu ishlar yetarli emas. 2025 yilgacha amalga oshirilgan ishlarni tahliliga ko'ra imkoniyati cheklangan shaxslar boshqalar kabi bir xil sharoitda ta'lim olishi, ularga barcha imkoniyatlar yaratilishi bo'yicha e'tibor qaratilayotgani ma'lum. Inklyuziv jamiyat masalasiga alohida e'tibor qaratib, keng jamoatchilikning fikrlarini ham o'rganib borish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lutfiyya, Zana Marie, Bartlett, Nadine A. (28.09.2020), "[Inclusive Societies](#)", Oxford Research Encyclopedia of Education. 2024.
2. CDC (2019-04-09). "[Disability Inclusion | CDC](#)". Centers for Disease Control and Prevention. 27.07.2023.
3. Inclusive Green Growth. The Pathway to Sustainable Development. International Bank for Reconstruction and Development / International Development Association or The World Bank. 2012.)
4. « Inklyuziv jamiyatni barpo etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiramiz» — O'zbekiston prezidenti. <https://www.gazeta.uz/> 2022-yil, 2-dekabr.
5. "[Inclusive society](#)". ZonMw. 18.09.2023.
6. "[Кlaus Шваб: пандемия как трамплин](#)" \ euronews (in Russian): 2020-11-17.
7. "OECD". www.oecd.org. 2022-09-01.
8. "[Thematic Factsheet \ Social Inclusion](#)" UNESCO. 2021-01-25.
9. E-Dialogue on "Creating an Inclusive Society: Practical strategies to promote social integration", organized by DSPD/UNDESA, 20 May - 20 June 2007. There were a total of 252 participants from 80 countries.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarori // www.lex.uz.